

## **TURKISTON ASSRDA PILLACHILIK SANOATINING MARKAZLASHTIRISH SIYOSATI**

*Urinov Islomjon Olimjon o'g'li*

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti*

*“Tillar, ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat”*

*kafedrası o'qituvchisi*

*islomjonurinov469@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Turkiston ASSR davrida pillachilik sanoatining markazlashtirish siyosati tahlil qilinadi. Tadqiqotda sovet hokimiyatining dastlabki yillarida pillachilik tarmog'ini davlat nazoratiga olish, ishlab chiqarishni markazlashtirish va boshqaruv tizimini yagona tizim asosida tashkil etish jarayonlari o'rganiladi. Shuningdek, markazlashtirish siyosatining pillachilik ishlab chiqarish hajmiga, xomashyo yetishtirishga hamda mahalliy aholi mehnat faoliyatiga ta'siri yoritiladi. Maqolada mazkur siyosatning ijobiy va salbiy jihatlari, uning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini ilmiy asosda tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Turkiston ASSR, pillachilik, markazlashtirish siyosati, sovet davri, davlat boshqaruvi, sanoat, ishlab chiqarish, xomashyo, iqtisodiy siyosat, mehnat resurslari.

**Аннотация.** В данной статье анализируется политика централизации шелководческой промышленности в Туркестанской АССР. Рассматриваются процессы установления государственного контроля над отраслью, централизации производства и формирования единой системы управления в первые годы советской власти. Особое внимание уделяется влиянию политики централизации на объемы производства, развитие сырьевой базы и трудовую деятельность местного населения. В статье также выявляются положительные и отрицательные стороны данной политики, а также ее экономические и социальные последствия.

**Ключевые слова:** Туркестанская АССР, шелководство, политика централизации, советский период, государственное управление, промышленность, производство, сырьевая база, экономическая политика, трудовые ресурсы.

**Annotation.** This article analyzes the policy of centralization of the sericulture industry in the Turkestan ASSR. The study examines the establishment of state control over the sector, the centralization of production, and the formation of a unified management system during the early years of Soviet rule. Particular attention is paid to the impact of centralization policy on production volumes, the development of the raw material base, and the labor activities of the local population. The article also

identifies the positive and negative aspects of this policy and analyzes its economic and social consequences.

**Keywords:** Turkestan ASSR, sericulture, centralization policy, Soviet period, state management, industry, production, raw materials, economic policy, labor resources.

**Kirish.** 1908 yilda Turkiston ipak yetishtiruvchi mamlakatlar orasida 8-o'rinni egallagan bo'lsa, 1909 yilga kelib 10-o'ringa tushib ketgan. Bu holat o'lkada ipakchilik tarmog'ining jahon bozoridagi raqobatbardoshligi pasayib borayotganini ko'rsatadi. Asosiy muammolardan biri ozuqa bazasining yetarli rivojlanmagani, ipak qurti boqish madaniyati pastligi va qurt urug'i sifati qoniqarsiz bo'lganidir. O'lkada aholini ko'chat bilan ta'minlaydigan yirik pitomnik xo'jaliklari deyarli mavjud emas edi. Samarqanddagi qurt urug'i nazorat stansiyasi mavjud bo'lgan bo'lsa-da, u tarmoq ehtiyojini to'liq qondirmagan.

Chor hukumati Turkistonda ipakchilikni rivojlantirishga yetarli darajada e'tibor qaratmagan. Masalan, tarmoqni qo'llab-quvvatlash uchun yiliga taxminan 20 ming so'm mablag' ajratilgan bo'lib, mazkur mablag'lar asosan ma'muriy xarajatlar hamda bir necha instruktor maoshiga sarflangan. Natijada ipakchilik tarmog'ining texnik va ilmiy bazasi shakllanmagan.

**Asosiy qism.** Jahon bozorida "Turkiston pillasi" sifati pastligi tufayli fransuz va italyan pillalariga nisbatan 11–15 foizga arzon baholangan. Shu bilan birga, mahalliy pilladan olinadigan ipak chiqishi ham 10–15 foizga kam bo'lgan. Ayrim hollarda mahalliy pilla 20–25 foizgacha arzon narxlarda sotilgan. Bu holat Turkiston ipakchiligining jahon bozoridagi raqobatbardoshligi past bo'lganini ko'rsatadi.

1916 yilga kelib yer egaligida keskin tengsizlik kuzatilgan. Jumladan, Farg'ona vodiysida dehqon xo'jaliklarining 51 foizi ekin yerlarining 0,1 foizdan kam qismiga ega bo'lgan bo'lsa, boy xo'jaliklarning atigi 3,5 foizi yerlarning 33 foizini egallagan. Bunday ijtimoiy-iqtisodiy sharoit pillachilikni iqtisodiy jihatdan noqulay sohaga aylantirgan.

1917–1918 yillardagi siyosiy beqarorlik va iqtisodiy inqiroz natijasida ipakchilik tarmog'ida keskin tanazzul kuzatildi. 1918 yilga kelib ipakchilik 1913 yilgi darajaning atigi 5 foiziga tushib ketdi. 1919 yilda 1913 yildagi 210 ming quti qurt urug'i o'rniga 110 ming quti tayyorlandi, yalpi pilla hosili esa 249 tonnani tashkil etdi.

Ipakchilik tarmog'ida yuzaga kelgan inqirozli holatni bartaraf etish maqsadida sovet hukumati Turkistonda ipakchilikni markazlashtirilgan tarzda boshqarish va uni qayta tiklash choralari ko'ra boshladi. Bu, bir tomondan, mintaqaning tabiiy-iqlim sharoiti ipakchilik uchun qulayligi, ikkinchi tomondan esa O'rta Osiyoni SSSR yengil sanoati uchun muhim xomashyo bazasiga aylantirish siyosati bilan izohlanadi.

1919 yilda Turkiston Respublikasi Xalq xo'jaligi markaziy kengashi (SSNX) huzurida ipak sanoatiga rahbarlik qiluvchi maxsus markaziy idora — «Sentroshek» tashkil etildi[1].

Ipak sanoatini to'liq markazlashtirish maqsadida Xalq xo'jaligi markaziy kengashi (SSNX) 1919 yil 30 dekabrda maxsus buyruq chiqarib, unga muvofiq barcha ipak o'rash korxonalarini qaysi idoraga qarashli bo'lishidan qat'i nazar, mavjud xomashyo, zaxira, yarim tayyor mahsulotlar hamda uskunalari bilan «Sentroshek» ixtiyoriga o'tkazildi[2]. Shu davrda Qo'qon va Farg'ona shaharlarida faoliyat yuritib kelgan ikki grenaj korxonasi ham davlat tasarrufiga olindi[3]. Shuningdek, Namangan va Toshkent shaharlarida yangi grenaj zavodlari qurilishi boshlab yuborildi.

Markaziy ipakchilik boshqarmasi — «Sentroshek» joylarda maxsus rayon bo'limlariga (rayshelk) ega bo'lgan. Ushbu bo'limlarning asosiy vazifalari mahalliy tashkilotlar va korxonalar faoliyatini boshqarish, ularni moliyalashtirish hamda moddiy-texnika jihatdan ta'minlashdan iborat edi. Bunday rayon bo'limlari Toshkent, Qo'qon, Skobelev (hozirgi Farg'ona), Xo'jand, Namangan, Samarqand va Poltoratsk (hozirgi Ashxobod) shaharlarida tashkil etilgan[4]. Mazkur bo'limlar aholidan pilla xarid qilish, tayyor ipak ipini jamlash huquqiga ega bo'lib, shuningdek tut daraxtlarini yoqilg'i sifatida kesishni taqiqlash hamda hukumat ruxsatisiz ipak qurti urug'ini (grena) xarid qilishning oldini olish vakolatiga ham ega bo'lgan[5].

1920 yilda «Sentroshek» qoshida O'rta Osiyo ipakchilik instituti tashkil etildi. Ushbu muassasa mutaxassislari tomonidan dastlab Toshkentda (1921 yil), keyinchalik esa Farg'ona va Samarqandda ipakchilik stansiyalari tashkil etildi[6]. Bu stansiyalar ipakchilik sohasini ilmiy asosda rivojlantirishga xizmat qildi.

1921 yilda Toshkent shahrida O'rta Osiyo ipakchilik xodimlarining birinchi qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda sanoat ipakchiligini ilmiy asosda tashkil etish zarurligi ta'kidlandi. Bu maqsadga erishish uchun sohani boshqaradigan malakali davlat-boshqaruv organini tashkil etish talab qilindi. Natijada «Turkshek» aksiyadorlik jamiyati tashkil etildi[7]. 1923 yil avgust oyida SSSR Xalq Komissarlari Soveti mazkur jamiyatning Nizomini tasdiqladi.

Ipakchilik tarmog'ini boshqarish va uni xom ashyo bilan ta'minlash ishlarida mahalliy xalq xo'jaligi kengashlari ham muhim tashkiliy vazifalarni bajardi. Xalq xo'jaligi markaziy kengashi huzuridagi ipakchilik sanoati bo'limi 1919–1920 yillarda ipakchilik va ipak yechish ustaxonalarini xom ashyo bilan ta'minlash bo'yicha muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Ushbu ustaxonalar mahsuloti hisobga olinib, uning bir qismi ipak to'qish ustaxonalariga yetkazib berilgan, qolgan qismi esa tashqi savdo orqali sotilgan. Ayniqsa, Buxoro mintaqasida xom ipakka bo'lgan talab yuqori bo'lgan[8].

Turkiston Respublikasida ipakchilik sohasini sotsialistik asosda qayta tashkil etish jarayoni hunarmandlarni kooperatsiyaga jalb qilish va davlatga qarashli sanoat

korxonalarini tashkil etish orqali amalga oshirildi. RKP(b)ning 1919 yil mart oyida bo'lib o'tgan VIII qurultoyida qabul qilingan partiya dasturida mayda va hunarmandchilik sanoatidan keng foydalanish zarurligi ta'kidlandi. Buning uchun davlat buyurtmalari berish, ularni xom ashyo bilan ta'minlash hamda moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali hunarmandlarni artellarga birlashtirish vazifasi belgilandi[9].

Shu asosda Turkiston Kommunistik partiyasi ham hunarmandchilik sanoatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi. 1921 yil aprel oyida Turkiston ASSR Xalq xo'jaligi markaziy kengashi qaroriga ko'ra, barcha hunarmandlar artellari va ishlab chiqarish kooperativlari mahalliy xalq xo'jaligi kengashlarining kooperativ bo'limlarida ro'yxatdan o'tkazilishi belgilandi. Markaziy SOVNARXOZning ipakchilik bo'limi respublika hududidagi barcha ipak yechish va ipak ip tayyorlash ustaxonalarini hisobga oldi. 1921 yil oxiriga kelib Turkistonning besh viloyatida 745 ta artel tashkil etilgan bo'lib, ularda 24 mingdan ortiq kishi faoliyat yuritgan[10].

**Natija va muhimlar:** Ipak to'qish sohasida tahlil qilinayotgan davrda 4577 ta xo'jalikdan 3203 tasi kooperatsiyaga jalb etildi. Ipak yechish ustaxonalarida esa 782 ta xo'jalikdan 622 tasi (79,55 foiz)[11], kooperatsiya tarkibiga kirgan. Kooperatsiyaga kirgan ishlab chiqaruvchilar asosan kooperativ buyurtmalari asosida ishlab, mahsulotni kooperatsiya tomonidan berilgan xom ashyo hisobidan tayyorlagan. Ko'plab hunarmandlar uy sharoitida ishlagani uchun ba'zan o'z xom ashyosidan ham foydalangan. Uyda ishlovchi hunarmandlar ulushi 69,4 foizni, mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar ulushi esa 27,1 foizni tashkil etgan[12].

NEPning dastlabki yillarida hunarmandlar kooperatsiyalari barqaror emas edi. Ayrim hollarda ular tarqab ketib, ba'zi hunarmandlar xususiy korxonalar tashkil qilgan. Shu munosabat bilan RSFSR Xalq Komissarlari Soveti 1921 yil 17 mayda V. I. Lenin imzolagan «Sovet hokimiyati organlariga mayda va hunarmandchilik sanoati hamda hunarmandchilik qishloq xo'jaligi kooperatsiyasi to'g'risida rahbariy ko'rsatmalar» haqidagi dekretni qabul qildi[13]. Unda mahalliy partiya, sovet va xo'jalik organlariga mayda ishlab chiqaruvchilar kooperatsiyasini har tomonlama rivojlantirish vazifasi yuklatildi.

Mazkur dekret asosida 1921 yil 12 iyulda Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va Xalq Komissarlari Soveti maxsus qaror qabul qildi. Unga muvofiq promkooperatsiyani boshqaruvchi respublika tashkiloti — «Turkpromsoyuz» tashkil etildi. U O'zbekiston SSR tashkil topgunga qadar faoliyat yuritdi. 1925 yil oktabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston promkooperatsiyasining ta'sis qurultoyi esa yagona respublika markazi — «O'zpromsoyuz»ni tashkil qildi. Bu tashkilot tarkibiga ipakchilik va ipakni qayta ishlash sohasining kooperativ tarmog'i ham kiritildi.

Ipakni qayta ishlash sanoatining rivojlanishi, umuman mamlakat industriallasuvi kabi, turli siyosiy va iqtisodiy qarama-qarshiliklar sharoitida kechdi. Ayrim hollarda «Turkshelk» rahbariyatining bir qismi ham bu jarayonga tanqidiy munosabat bildirgan.

Ular mahalliy sharoitni bahona qilib, mahalliy millat ayollari faqat mavsumiy ishlardagina ishtirok etishi mumkinligini ta'kidlagan. Biroq industriallashtirishga qarshi bunday qarashlar partiya va davlat organlari tomonidan qo'llab-quvvatlanmagan[14].

1926 yil 29 iyunda O'rta Osiyo aksiyadorlik jamiyati — «Turkshelk» aksiyadorlarining qurultoyida jamiyatning yangi Nizomi qabul qilindi[15]. Mazkur Nizomga muvofiq, tashkilot faoliyati O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi (SredazEKOSO) tasarrufiga o'tkazildi. Bu holat ipakchilik tarmog'ini boshqarishda markazlashuv jarayoni yanada kuchayganini va uni mintaqaviy iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida qayta tashkil etishga o'tilganini ko'rsatadi.

Qabul qilingan Nizomda «Turkshelk» jamiyatining asosiy vazifalari aniq belgilab berilgan. Jumladan, jamiyat zimmasiga ipak xom ashyosining barcha turlarini tayyorlash va jamlash, ipakchilik bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklar hamda hunarmandchilik asosida faoliyat yurituvchi ipakni qayta ishlash korxonalarini moliyaviy va xom ashyo bilan ta'minlash vazifalari yuklatilgan. Shuningdek, ipakni qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalarini — ipak yechish, ipak ip tayyorlash, ipak to'qish va ipakni bo'yash korxonalarini tashkil etish va ular faoliyatini yo'lga qo'yish ham jamiyatning muhim vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Bundan tashqari, jamiyatga ipak xom ashyosi, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor ipak mahsulotlari savdosini tashkil etish, shuningdek SSSR hududida hamda xorijiy mamlakatlarda kontragenturalar, omborxonalar, savdo nuqtalari va yordamchi korxonalar ochish huquqi berilgan[16].

**Xulosa.** Mazkur o'zgarishlar tasodifiy emas edi. Chunki 1920-yillarning ikkinchi yarmiga kelib ipakchilik tarmog'i tiklanish bosqichidan institutsional mustahkamlanish va sanoatlashuv bosqichiga o'ta boshladi. Keyingi yillarda ipakchilikka ixtisoslashgan hunarmandchilik va mayda ishlab chiqarish korxonalarining, ayniqsa ishlab chiqarish artellarining rivojlanishi davlatga qarashli fabrika sanoatining shakllanishi uchun muayyan iqtisodiy zamin yaratdi. Natijada urushgacha bo'lgan besh yilliklar davrida ipakchilik sanoati Sovet O'zbekistonida yengil sanoatning muhim tarmoqlaridan biriga aylandi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. 1921 yilda «Sentroshelek» Bosh paxta qo'mitasi tasarrufiga o'tkazildi, 1923 yilda esa u qaytadan Xalq xo'jaligi markaziy kengashi (SSNX) qaramog'iga qaytarilib, Turkiston ipak sanoati aksiyadorlik jamiyati — «Turkshelk» sifatida faoliyat yurita boshladi.
2. O'zMilliy arxifi, f. R-17, 1-ro'yxat, 820-ish, 152-varaq.
3. 1919 yil 14 apreldagi Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Soveti (SNK TASSR) dekretiga muvofiq, Qo'qon shahridagi aka-uka Mandalakilarga tegishli hamda

Skobelev (Fargʻona) shahrida joylashgan K. X. Yevtixidiga qarashli grenaj korxonalari barcha jihozlari va binolari bilan birga davlat tasarrufiga olindi.

4. OʻzMA, f. R-132, 2-roʻyxat, 24-ish, 24-varaq.
5. OʻzMA, f. R-132, 2-roʻyxat, 24-ish, 25-varaq.
6. 1927 yil noyabr oyida Toshkent ipakchilik stansiyasi qayta tashkil qilinib, Oʻrta Osiyo ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti (SANIISH)ga aylantirildi, Fargʻona stansiyasi esa SANIISHning mintaqaviy (zonal) stansiyasi sifatida qayta tashkil etildi. Keyingi yillarda Samarqand va Ashxobod zonal ipakchilik stansiyalari ham SANIISH tizimiga kiritildi. SANIISHning asosiy vazifalari ipakchilik va ipakni qayta ishlash sanoatining iqtisodiy hamda texnik masalalarini oʻrganish, ipakchilik sohasida kooperativ tizimni rivojlantirish, shuningdek tutchilik, ipakchilik va ipakni qayta ishlash boʻyicha ilmiy hamda amaliy kadrlar tayyorlashdan iborat edi.
7. OʻzMA, f. 132, 6- roʻyxat, 20-ish, 6–7-varaq.
8. Султанова Н.К. Из истории создания шелкообрабатывающей промышленности УзССР // *Общественные науки в Узбекистане*. – 1975. – № 6-7. – Б. 83-86.
9. КПСС в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК./ А.Г.Егоров, К.М.Боголюбов. Т. 2, –М.:Полиздат, 1983, –С. 67-70.( 609 с.)
10. Ульмасбаев Ш. Н. *Индустриальное развитие Узбекистана за годы Советской власти*. –Ташкент : Узбекистан, 1966, –С. 27. (270 с)
11. Ўз МА, ф. Р-9, 1-roʻyxat, 1116-ish, 57–58-varaqlar.
12. ЎзМА, ф. Р-9, 1-roʻyxat, 1116-ish, л. 57–58-varaqlar.
13. Сборник решений партии и правительства по хозяйственным вопросам (1917–1967 гг.), т. 1, 1917–1928 гг., М., 1967, стр. 232–233.
14. Султанова Н.К. Из истории создания шелкообрабатывающей промышленности УзССР // *Общественные науки в Узбекистане*. – 1975. – № 6-7. – Б. 83-86.
15. Об изменении устава Акционерного Общества «Туркшелк». Утверждено Советом Народных Комиссаров Союза ССР 29 июня 1926 года//Собрание законов и распоряжений Рабоче-Крестьянского Правительства СССР за 1926 г. № 1-39. Отдел второй. — М., б. г.–С 167-168. (245)
16. Шелковая промышленность СССР / С.А. Анучин, Г.Н. Кукин. – М, 1930.–С. 20. (367 с.)